

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHNING O'ZIGA XOSLIGI**

*DTP institutining maktabgacha ta'lism yo'naliishing  
1-bosqich talabalari*

**Yo'Idosheva Aziza Xo'jamurat qizi**

**Yo'Idosheva Ruxshona O'rol qizi**

**Egamshukurova Nasiba Hamdam qizi**

**Annotatsiya :** Maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish yo'llari va ta'lism jarayonida aqliy tarbiyaga doir barcha masalalar yoritilgan.

**Kalit so'z:** Ta'lism, didaktik o'yinlar, metodlar, kuzatish metodi, malaka, ko'nikma, kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, ziyraklik, tanqidiylik.

**KIRISH**

2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lism tashkilotlarda bolalarni maktab ta'limga tayyorlash bo'yicha qisqa muddatli guruhlarni tashkil qilishning asosiy parametrlari 4 ilovaga muvofiq tasdiqlanishiga asoslangan.

Ta'lism- maktabgacha yoshidagi bolaning bilish qobiliyatlarining muntazam rejali ravishta rivojlantirib borish maktabgacha ta'lism tashkilotlarining ta'lism tarbiya dasturida belgilangan eng oddiy bilimlarsistemasi bilan qurollantirish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.Ta'lism bolalarga izchillik bilan bilim berishni,bu bilimlarni aniqlash va sistemalashtirishni bilish jarayonlarini tafakkur faolligini rivojlantirish jarayoni.Bolalarga ta'lism berish jarayonida tarbiyachi har xil metodlardan foydalanadi.Bularga kuzatish metodi ya'ni bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtiradi.Namoyish etish metodi-bunda tarbiyachi ko'rib bo'lmaydigan narsalarni tasvirlab beradi.Suhbat metodi-bu metod turida qat'iy yosh belgilangan.Asosan 6 yoshdan boshlab suhbat mustaqil mashg'ulot sifatida o'tgaziladi.Hikoya qilib berish metodi-materialni aniq obrazli ta'sirchan o'qib berish bolani bunga qiziqtirish jarayoni.Bu metodlar asosida ta'lismni amalga oshirish ikki yo'lga bo'linadi.Birincxhi yo'lda bolalarni bilim,malaka,ko'nikmalarini kattalar bilann o'zaro munosbatda bo'lishi orqali egallab borishidir.Bu muomala mehnat faoliyati va shu kabilar bilan belgilanadi.Ikkinci yo'li esa mahsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o'quv tashkilotlarda bolalarni kerakli bilim, malaka,ko'nikmalardan rejali ravishta habardor bo'lib borishidir.Bunday yo'l bilan ta'lism berishdan maqsad yosh avlodni zamonaviy ishlab chiqarishda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy,madaniy hayotida faol qatnashtirish uchun zarur bo'lgan fan yutuqlari bilan tanishtirishdir.Maktabgacha yoshidagi bolalarga ta'lism berishda tarbiyachi metodlar va mashg'ulotlardan foydalanadi.

Mashg'ulotning tuzilishi:mashg'ulot quyidagi tuzilishga ega.Bolalarni uyuştirish, asosiy qism,yakunlovchi qism.Bolalar mashg'ulotga qiziqib qatnashishlari va unda faol ishtirok etishlari uchun uning mazmuni va metodikasi puxta o'ylanib olinishi kerak.Bolalar o'quv faoliyatini qanchalik puxta egallab olsalar tarbiyachini e'tibor bilan tinglab o'yindan mashg'ulotga osonlik bilan o'tadilar.Mashg'ulot muvaffaqiyatli o'tishi uchun bolalar oldida turgan faoliyatga qiziqish uyg'otishi buning uchun bolalarning Yoshi,qiziqish faoliyatiga mos har xil usullarni qo'llashi kerak.

Xulosa o'rnilida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lif berishning asosiy shakliga mashg'ulot jarayonlari kiradi.Mashg'ulot pedagogning bolalarni kerakli bilim va malakalardan firontal holda habardor qilish tarbiyachi bolalarga ta'lif berishni kun davomida amalga oshiradi.Asosan maktabgacha yosh davri sensor jarayonlarni rivojlantirish davridir.Shuning uchun bu davrda sensor tarbiya muhim o'r'in egallaydi.Sensor tarbiya hissiy bilish qobiliyatlarini shakllantirishga sezgini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik tasir sistemasidir.Mariya Montesori texnologiyasida ham shu fikrlar ilgari surilgan.Bularning barchasi mustaqil fikrlovchi intiluvchan shaxsni tarbiyalashda asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" asari. 2008-yil Ma'naviyat nashriyoti.
- 2.Fotima Qodirova "Maktabgacha pedagogika" Tafakkur nashriyoti 2019
- 3.Sh.Q.Toshpo'latova "Maktabgacha pedagogika" Tafakkur nashriyoti 2019
- 4.Nargiza Qayimova "Maktabgacha pedagogika" Toshkent 2013
- 5.Sh. Sodiqova "Maktabgacha pedagogika" Tafakkur bo'stoni nashriyoti Toshkent 2013.